

TUBER ACONITI (PARPI) O‘SIMLIGINING DORIVORLIGI VA XALQ TABOBATIDA QO‘LLANILISHI.

I.Ergasheva

M.Azizova

Annotatsiya: Parpi (Tuber Aconiti) o‘simligining dorivor xususiyatlari, uning tarkibidagi biologik faol moddalar, xalq tabobati va zamonaviy fitoterapiyada qo‘llanilish doiralari yoritilgan. Parpining ichki va tashqi kasalliklarni davolashdagi samaradorligi, damlama, sharbat, kompress kabi tayyorlanish shakllari ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, o‘simlikni ehtiyotkorlik bilan qo‘llash va mumkin bo‘lmagan holatlar ko‘rsatib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: Parpi, dorivor o‘simliklar, xalq tabobati, kimyoviy tarkib, damlama, sharbat.

Kirish. Parpi ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Uning bo‘yi 70-130 sm ga yetadi. Yo‘l yoqalari, dala, va bog‘larda ko‘p uchraydi. Nam tuproqli joylarda uchraydi. Uning bargi, urug‘i va ildizi yuqori shifobaxsh xususiyatlarga ega. Parpi o‘simligi - qadimdan xalq tabobatida keng qo‘llanilib kelayotgan o‘simliklardandir. O‘zbekistonda ushbu o‘simlik parpi, bargizub, yovvoyi yalpizak nomlari bilan mashhur. Parpi ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, parpidoshlar oilasiga mansub, yerga yaqin o‘sadigan, keng va uzun tomirli barglarga ega bo‘lgan o‘simlik. Barglari rozet holida joylashgan bo‘lib, uzunligi 15-25 sm gacha yetadi. Gullari mayda, ko‘pchilikdan iborat, poyasining uchida g‘unchalar ko‘rinishida bo‘ladi. Urug‘i juda mayda, jigarrang rangli va ko‘payish qobiliyatiga ega. Poyasi tik o‘sadi. Guli sariq, yirik poyasining uchida savatcha to‘pgul hosil qiladi. Parpi may-iyul oylarida gullab, mevasi avgust- sentabr oylarida pishadi.

Bargi, urug‘i va ildizida A vitamini, flavonoidlar, shuningdek pektin, polisaxarid, C hamda K vitaminlari, organik kislotalar (limon va olma kislotalari), mineral tuzlar kabi moddalar mavjud.

Tibbiyotda ildizi, bargi va guli ishlatiladi. Gulidan tayyorlangan damlamalar spazimga qarshi, tinchlantiradi, qon tarkibini yaxshilaydi, qand miqdorini pasaytiruvchi xususiyatlarga ega. Parpi o'simligidan tayyorlangan damlamalar qonni tozalaydi, xolesterin miqdorini kamaytiradi, oshqozon shirasini meyorlashtiradi, ichak mikroflorasini tiklaydi, jigar yallig'lanishini kamaytiradi va uyqusizlikni kamaytirishda ishlatiladi. Parpi ildizidan ekstrakt, tabletkalar uchun quruq kukun, sirop va kapsula tayyorlanadi. Quritilgan ildiz ustiga issiq suv quyiladi. 20-30 daqiqa dam qo'yiladi. Suv tiniqlashgach, suzib olinadi. Odatda issiq choy kabi oz-oz ichiladi. Bargi yoki gulidan tayyorlanadigan damlamasi ham shu tartibda boladi. Parpi o'simligi ildizidan damala quyidagicha tayyorlanadi. Ildiz yaxshilab yuviladi va mayda bo'laklarga maydalab quritiladi kichik dozada, ovqatdan 30 daqiqa oldin ichiladi. Agar surtmalar bo'ladigan bo'lsa, haftasiga 1-2 marta ishlatiladi. Parpi o'simligining qonni tozalash xossasi, yallig'lanishni kamaytirishi, hazm qilish va asab sistemasiga ijobiy ta'siri hamda balg'am ko'chiruvchi xususiyatlari asosida farmasevtikada ishlatiladi. amaliyotda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Parpi o'simligi qadimdan xalq tabobatida va zamonaviy farmasevtikada ishlatiladi. Amaliyotda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ushbu o'zimlikning kimyoviy tarkiblari: Akonitin, gipoakonitin, limon kislota, sirka kislota qoldiqlari, gallotanin, ellagotanin, rutin, kaempferol, bornil asetat, Ca, K, Mg, Fe, P kabilardan iborat. Alkaloidlar, akonitin og'riq qoldiruvchi, flavonoidlar rutin yallig'lanishga qarshilik qiluvchi, efir moylari bornil asetat tinchlantiruvchi, mineral moddalar organizmi tiklash xususiyatiga ega.

Xulosa. Tuber Aconiti (parpi) o'simligi qadimdan xalq tabobatida og'riq qoldiruvchi, yallig'lanishga qarshi va isituvchi vosita sifatida qo'llanib kelinadi. Uning tarkibidagi akonitin guruhiga mansub alkaloidlar kuchli farmakologik ta'sirga ega bo'lib, aynan shu moddalarning faoliyati tufayli revmatizm, radikulit, nevrалgiya, mushak og'riqlari va teri kasalliklarini davolashda tashqi muolaja sifatida samarali hisoblanadi. Parpining spirtli damlamalari qon aylanishini yaxshilash, og'riqni kamaytirish va yallig'lanish jarayonlarini pasaytirishda an'anaviy davo vositasi sifatida keng qo'llangan. Biroq o'simlik tarkibidagi akonitin juda kuchli zaharli modda

bo'lgani sababli, uni ichki qabul qilish qat'iyan man etiladi hamda faqat tajribali tabiblar yoki mutaxassislar nazorati ostida tashqi qo'llash tavsiya etiladi. Parpini ishlatishda dozaga rioya qilish, terida ochiq yara bo'lsa qo'llamaslik, bolalar va homilador ayollar uchun taqiqlanganini unutmashlik muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdukarimov, A., & Tojiboev, K. Dorivor o'simliklar va ularning xususiyatlari. Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.
2. Xasanov, Z. O'simlikshunoslik va farmakognoziya asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.
3. Karimov, M. Xalq tabobati va zamonaviy fitoterapiya. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018.
4. Sharipov, F. Farmakognoziya: dorivor xomashyolar kimyosi. Toshkent: TTA nashriyoti, 2021.
5. Evans, W. C. Trease and Evans Pharmacognosy. London: Saunders Elsevier, 2009.
6. Chan, T. Y. "Aconitum Alkaloid Poisoning: Toxicology and Clinical Management." Clinical Toxicology Journal, 2012.
7. Zhao, Y., & Wang, L. Traditional Use of Aconiti Tuber in Eastern Medicine. Journal of Ethnopharmacology, 2016.